

JAMIYAT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA MEDIATSIYANING**RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI****Abdullaev Bahodir Ahmedovich****Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi****bahodir.1977@mail.ru**<https://doi.org/10.5281/zenodo.22080642>

Annotatsiya: Maqolada jamiyat transformatsiyasi sharoitida mediatsiya institutining rivojlanish istiqbollari ijtimoiy-falsafiy va aksiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi mediatsiyani sof huquqiy protsedura sifatida emas, balki qadriyatlarga yo'naltirilgan ijtimoiy amaliyot sifatida ko'rib chiqish hamda uning zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar kontekstidagi rivojlanish salohiyatini aniqlashdan iborat. Ishda tizimli-strukturaviy, qiyosiy, germeneytik va aksiologik usullar qo'llanilgan. Tadqiqot natijasida mediatsiyaning tushunchaviy-nazariy asoslari, uning aksiologik o'lchovi va transformativ salohiyati ochib berilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining huquqiy-institutsional rivojlanishi va istiqbollari asoslangan. Xulosa qilinishicha, mediatsiyaning kelgusi taraqqiyoti nafaqat qonunchilik va institutsional omillarga, balki jamiyatning qadriyat madaniyati yetukligiga bog'liqdir.

Kalit so'zlar: mediatsiya, jamiyat transformatsiyasi, nizolarni muqobil hal etish, aksiologiya, qadriyatlar, ijtimoiy institut, transformativ mediatsiya, huquqiy madaniyat, konsensus, O'zbekiston.

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МЕДИАЦИИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ
ОБЩЕСТВА****Абдуллаев Баходир Ахмедович****Исследователь Наманганского государственного университета**

Аннотация: В статье с позиций социально-философского и аксиологического подходов анализируются перспективы развития института медиации в условиях трансформации общества. Цель исследования заключается в рассмотрении медиации не как сугубо правовой процедуры, а как ценностно-ориентированной социальной практики, а также в выявлении её потенциала развития в контексте современных общественных изменений. В работе применены системно-структурный, сравнительный, герменевтический и аксиологический методы. В результате раскрыты понятийно-теоретические основания медиации, её аксиологическое измерение и трансформативный потенциал, а также обосновано правовое и институциональное развитие медиации в Республике Узбекистан. Делается вывод о том, что дальнейшее развитие медиации зависит не только от законодательных и институциональных факторов, но и от зрелости ценностной культуры общества.

Ключевые слова: медиация, трансформация общества, альтернативное разрешение споров, аксиология, ценности, социальный институт, трансформативная медиация, правовая культура, консенсус, Узбекистан.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF MEDIATION IN THE CONTEXT OF SOCIAL TRANSFORMATION

Abdullaev Bakhodir Achmedovich

Researcher at Namangan State University

Abstract: The article analyses the prospects for the development of the institution of mediation under the conditions of social transformation from social-philosophical and axiological perspectives. The aim of the study is to consider mediation not as a purely legal procedure but as a value-oriented social practice, and to identify its developmental potential in the context of contemporary social change. The study employs systemic-structural, comparative, hermeneutic and axiological methods. As a result, the conceptual and theoretical foundations of mediation, its axiological dimension and its transformative potential are revealed, and the legal and institutional development of mediation in the Republic of Uzbekistan is substantiated. It is concluded that the further development of mediation depends not only on legislative and institutional factors but also on the maturity of the value culture of society.

Keywords: mediation, social transformation, alternative dispute resolution, axiology, values, social institution, transformative mediation, legal culture, consensus, Uzbekistan.

Kirish. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy tuzilishi tobora yuqori sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Globallashuv, iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi va aholi huquqiy ongining o'sishi natijasida shaxslar hamda ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi ham miqdor, ham mazmun jihatidan yangicha ko'rinish kasb etmoqda. An'anaviy sud tizimi bunday vaziyatda nizolarning barcha turlarini o'z vaqtida, arzon va munosabatlarni saqlagan holda hal etishga har doim ham qodir emas. Shu sababli nizolarni muqobil hal etish usullari, xususan mediatsiya, nazariy va amaliy jihatdan alohida dolzarblik kasb etadi.

Mediatsiya betaraf uchinchi shaxs, ya'ni mediator ko'magida, tomonlarning ixtiyoriy roziligi asosida o'zaro maqbul yechimga erishishga qaratilgan nizoni bartaraf etish usuli sifatida ta'riflanadi [4]. Uning o'ziga xosligi shundaki, bu yerda qaror tashqaridan majburan yuklatilmaydi, balki tomonlarning o'zlari tomonidan ishlab chiqiladi. Ana shu jihat mediatsiyani sud yoki arbitraj kabi hakamlilik usullaridan tubdan farqlaydi va uni jamiyatning o'zini o'zi tartibga solish qobiliyatini mustahkamlovchi ijtimoiy amaliyotga aylantiradi.

Mediatsiya muammosi jahon ilmiy adabiyotida yetarlicha keng o'rganilgan. G'arb tadqiqotchilari uni asosan pragmatik va protsessual nuqtai nazardan tahlil qilib, muzokara texnikasi hamda nizoni hal etish bosqichlari nazariyasini ishlab chiqishgan [1; 2]. Alohida yo'nalish sifatida transformativ mediatsiya konsepsiyasi shakllangan bo'lib, u nizoni hal etishni inson munosabatlari sifatini o'zgartirish bilan bog'laydi [3]. Postsovet makonida esa mediatsiya ko'proq huquqiy-institutsional jihatdan, muqobil sud tizimining bir qismi sifatida tadqiq etilmoqda [6]. Shu bilan birga mediatsiyaning aksiologik, ya'ni qadriyatlarga oid asoslari va uning jamiyat transformatsiyasi sharoitidagi rivojlanish istiqbollari falsafiy jihatdan yetarlicha yoritilmagan. Aynan shu holat tadqiqotning ilmiy muammosini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi jamiyat transformatsiyasi sharoitida mediatsiyani qadriyatlarga yo'naltirilgan ijtimoiy institut sifatida talqin qilish hamda uning rivojlanish istiqbollarini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi. Birinchidan,

mediatsiyaning tushunchaviy-nazariy asoslarini oydinlashtirish. Ikkinchidan, uning aksiologik o'lchovini ochib berish. Uchinchidan, jamiyat o'zgarishlari kontekstida mediatsiyaning transformativ salohiyatini tahlil qilish. To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining huquqiy va institutsional rivojlanishini hamda uning istiqbollarini asoslash.

Materiallar va usullar. Tadqiqotning uslubiy asosini bir necha o'zaro to'ldiruvchi yondashuvlar tashkil etadi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv mediatsiyani alohida huquqiy texnika sifatida emas, balki muayyan qadriyat tizimiga singdirilgan ijtimoiy institut sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu yondashuv mediatsiyaning ijtimoiy vazifasini, ya'ni jamiyatdagi ziddiyatlarni zo'ravonliksiz va kelishuv asosida bartaraf etish qobiliyatini tushunishga xizmat qiladi.

Aksiologik usul markaziy o'rin tutadi. U mediatsiyaning zamirida yotgan qadriyatlarni, jumladan erkinlik, mas'uliyat, adolat va shafqat kabi tushunchalarni tadqiq etishga yo'naltirilgan. Aksiologik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur axloqiy kategoriyalar bir ma'noli emas, balki dinamik va ichki ziddiyatli xususiyatga ega bo'lib, ularning mazmuni subyektning faol ishtiroki jarayonida shakllanadi [5]. Bu falsafiy tamoyil mediatsiya axloqiyatini tushunish uchun muhim uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tizimli-strukturaviy usul mediatsiyani o'zaro bog'liq unsurlar, ya'ni tomonlar, mediator, protsedura va erishilgan kelishuv majmui sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Qiyosiy usul G'arb, postsovet va milliy tajribani solishtirish, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlash uchun qo'llanildi [1; 2; 3; 6]. Germenevtik usul esa huquqiy matnlar va xalqaro hujjatlarning mazmunini, shuningdek ularda ifodalangan qadriyat ma'nolarini talqin qilishga xizmat qildi [4; 7].

Natijalar. Mediatsiyaning tushunchaviy-nazariy asoslari. Mediatsiya nazariyasining zamonaviy poydevori muzokara metodologiyasi bilan uzviy bog'liq. R. Fisher va U. Yuri tomonidan ishlab chiqilgan tamoyilli muzokara konsepsiyasiga ko'ra, samarali kelishuvga erishishning asosiy shartlari sifatida odamni muammodan ajratish, pozitsiyalar emas, manfaatlar ustida ishlash, o'zaro foydali variantlarni yaratish va obyektiv mezonlarga tayanish e'tirof etiladi [1]. Bu yondashuv mediatsiyani g'olib va mag'lub mantiqidan voz kechib, ikki tomon manfaatini qondiruvchi yechim izlash amaliyotiga aylantiradi.

K. Mur mediatsiyani izchil bosqichlardan iborat tuzilmaviy jarayon sifatida ta'riflaydi va bu jarayonda mediatorning betarafligi hamda tomonlar muloqotini yengillashtirish vazifasini alohida ta'kidlaydi [2]. Mediatorning roli hakamlilik qilishdan iborat emas. U tomonlarga o'z manfaatlarini anglash, bir-birini eshitish va mustaqil ravishda yechim ishlab chiqish uchun sharoit yaratadi. Aynan shu jihat mediatsiyani arbitraj va sud muhokamasidan farqlaydi, chunki bu usullarda qaror uchinchi shaxs tomonidan tomonlarga majburan yuklatiladi [6]. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida mediatsiya nizoni mediator ko'magida, tomonlarning ixtiyoriy roziligi asosida o'zaro maqbul qarorga erishish maqsadida hal etish usuli sifatida mustahkamlangan. Qonunga ko'ra mediatsiya fuqarolik, mehnat va oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha, ham sudgacha, ham sud jarayonida qo'llanilishi mumkin [4]. Bu me'yoriy ta'rif mediatsiyaning ixtiyoriylik, betaraflilik va konfidensiallik kabi asosiy tamoyillarini qonuniy darajada belgilaydi.

Mediatsiyaning aksiologik o'lchovi. Har qanday nizoning zamirida faqat moddiy manfaatlar emas, balki qadriyatlar to'qnashuvi yotadi. Tomonlar ko'pincha bir xil hodisani turli qadriyat tizimlari orqali idrok etadilar, shu sababli nizoni bartaraf etish nafaqat manfaatlarni

muvofiglashtirish, balki qadriyat ma'nolarini qayta tiklashni ham talab qiladi. Aynan shu nuqtada aksiologik yondashuv mediatsiya mohiyatini tushunish uchun kalit vazifasini bajaradi. Axloqiy tushunchalarning aksiologik tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda erkinlik, mas'uliyat va shafqat kabi kategoriyalar qat'iy va bir ma'noli birliklar emas, balki dinamik, ichki ziddiyatli va talqinga ochiq elementlar sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatilgan. Bu yerda qadriyat ma'nosi tashqaridan tayyor holda berilmaydi, balki subyektning faol ishtiroki orqali shakllanadi [5]. Ushbu falsafiy xulosa mediatsiya axloqiyatiga bevosita tegishlidir. Mediator, xuddi to'g'ridan-to'g'ri baho berishdan tiyilgan muallif kabi, tomonlar o'zlari uchun ahamiyatli qadriyatlarni mustaqil anglaydigan va aktuallashtiradigan makon yaratadi.

Mediatsiya qadriyatga yo'naltirilgan amaliyot sifatida talqin qilinishi mumkin. Uning samaradorligi ko'p jihatdan tomonlarni tayyor qaror qabul qilishga ko'ndirishga emas, balki ular o'rtasida o'zaro tan olish va hamdardlik makonini vujudga keltirishga bog'liq. Bu talqin mediatsiyani texnik protsedura doirasidan chiqarib, uni jamiyatning axloqiy madaniyati bilan bog'laydi va uning ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochib beradi. Jamiyat transformatsiyasi va mediatsiyaning transformativ salohiyati. R. Bush va J. Folger tomonidan asoslangan transformativ yondashuv mediatsiyaning maqsadini faqat nizoni hal etish bilan cheklamaydi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, mediatsiyaning asosiy qadriyati tomonlarni ichki kuchaytirish hamda ularning bir-birini tan olishiga ko'maklashishdadir. Natijada inson munosabatlarining sifati o'zgaradi, bu esa butun jamiyat darajasida axloqiy transformatsiyaga olib keladi [3]. Bunday nuqtai nazardan mediatsiya nafaqat individual nizoni yopadi, balki muloqot va o'zaro hurmat madaniyatini shakllantiradi.

Jamiyat transformatsiyasi sharoitida mediatsiyaning bu jihati alohida ahamiyat kasb etadi. O'tish davridagi jamiyatlarda an'anaviy qadriyat ierarxiyalari qayta ko'rib chiqiladi, ijtimoiy institutlar yangilanadi, fuqarolik ongi esa hali to'liq shakllanib ulgurmaydi. Bunday vaziyatda nizolarni zo'ravonliksiz va kelishuv asosida hal etish tajribasi jamiyatning barqarorligi uchun muhim resursga aylanadi. Mediatsiya dialog madaniyatini, fuqarolik yetukligini va konsensusga tayyorlikni tarbiyalash orqali ijtimoiy o'zgarishlarni yumshoq va konstruktiv o'zanga yo'naltiradi. Shu tariqa transformativ mediatsiya konsepsiyasi jamiyat transformatsiyasi jarayoni bilan ichki bog'liqlikka ega. Mediatsiya bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy o'zgarishlarning natijasi, ham ularning omili bo'lib xizmat qiladi. Bir tomondan, u jamiyatning huquqiy ongi va institutsional yetukligi o'sishi natijasida rivojlanadi. Boshqa tomondan, o'zi ham konsensual madaniyatni mustahkamlab, transformatsiyaning yo'nalishiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda mediatsiya institutining huquqiy-institutsional rivojlanishi va istiqbollari. O'zbekistonda mediatsiyaning huquqiy asoslari 2018 yilda qabul qilingan va 2019 yildan kuchga kirgan Mediatsiya to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlandi. Ushbu hujjat mediatsiya tushunchasini, uning tamoyillarini, mediator maqomini hamda mediativ kelishuvning huquqiy oqibatlarini belgilab berdi [4]. Qonunning qabul qilinishi milliy huquq tizimida nizolarni muqobil hal etish yo'nalishining institutsional shakllanishi uchun zamin yaratdi. Milliy tajribani baholashda xorijiy modellarni qiyosiy o'rganish samarali natija beradi. Amerika Qo'shma Shtatlarida shakllangan nizolarni muqobil hal etish tizimi huquqiy ta'minot va amaliy joriy etish jihatidan yetuk hisoblanadi, mediatsiya esa u yerda ijtimoiy va huquqiy institut sifatida rivojlangan [6]. Ushbu tajriba mediatsiyaning muvaffaqiyati faqat qonun mavjudligiga emas,

balki rivojlangan institutsional infratuzilma, malakali mediatorlar korpusi va jamiyatning ushbu usulga ishonchiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Mediatsiyaning rivojlanish istiqbollari xalqaro integratsiya bilan ham chambarchas bog'liq. 2018 yildagi mediatsiya natijasida erishilgan xalqaro kelishuvlar to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasi, ya'ni Singapur konvensiyasi, mediativ kelishuvlarni transchegaraviy tan olish va ijro etish uchun yagona huquqiy mexanizmni belgilaydi [7]. O'zbekistonning ushbu konvensiyaga qo'shilishi milliy mediatsiya institutini xalqaro huquqiy makonga integratsiyalash, tijorat nizolarini samarali hal etish va investitsiya muhitini yaxshilash uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

Ushbu tahlil asosida mediatsiyaning rivojlanish istiqbollarini bir necha yo'nalishda belgilash mumkin. Bularga institutsional infratuzilmani mustahkamlash, mediatorlarni kasbiy tayyorlash va sertifikatlash tizimini takomillashtirish, mediatsiyaning raqamli shakllarini joriy etish, uni qo'llash sohalarini kengaytirish hamda jamiyatda konsensual qadriyatlar madaniyatini shakllantirish kiradi. Aynan oxirgi omil, ya'ni qadriyat madaniyati, mediatsiyaning uzoq muddatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Muhokama. Olingan natijalarni ilmiy adabiyotdagi mavjud yondashuvlar bilan qiyoslash bir necha muhim xulosalarga olib keladi. G'arb an'anasining pragmatik yo'nalishi mediatsiyani birinchi navbatda manfaatlarni muvofiqlashtirish texnikasi sifatida ko'radi va uning samaradorligini erishilgan kelishuv bilan o'lchaydi [1; 2]. Transformativ yondashuv esa e'tiborni natijadan jarayonga ko'chiradi va mediatsiyaning qadriyatini inson munosabatlarining o'zgarishida deb biladi [3]. Postsovet tadqiqotlari uchun mediatsiyani huquqiy va ijtimoiy institut sifatida tushunish xarakterli bo'lib, bunda uning tizimli mustahkamlanishiga urg'u beriladi [6].

Ushbu yondashuvlar bir-birini inkor etmaydi, balki mediatsiyaning turli qirralarini yoritadi. Ayni paytda ularning har birida qadriyat o'lchovi yetarlicha nazariylashtirilmagan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi aynan shu bo'shliqni to'ldirishga urinishdadir. Maqolada pragmatik, transformativ va aksiologik o'lchovlarni yagona talqin doirasida birlashtirish taklif etiladi. Bunda axloqiy tushunchalarni dinamik va subyekt ishtiroki orqali shakllanuvchi kategoriyalar sifatida idrok etish tamoyili [5] mediatsiya axloqiyati uchun falsafiy asos vazifasini bajaradi. Shunday talqindan kelib chiqadigan asosiy tezis quyidagicha. Mediatsiyaning jamiyat transformatsiyasi sharoitidagi rivojlanish istiqbollari faqat qonunchilik va institutsional omillar bilan belgilanmaydi. Ular ko'p jihatdan jamiyatning qadriyat madaniyati yetukligiga, ya'ni fuqarolarning muloqotga, o'zaro tan olishga va konsensusga tayyorligiga bog'liqdir. Bu tezis huquqiy institutlarni rivojlantirishga qaratilgan an'anaviy nuqtai nazarni to'ldiradi va mediatsiya taraqqiyotining madaniy-qadriyatli o'lchovini ilmiy muomalaga kiritadi.

Shu bilan birga mediatsiya rivojidagi ichki ziddiyatlarni ham inobatga olish zarur. Bir tomondan, mediatsiyani rasmiylashtirish va ayrim toifadagi nizolar bo'yicha uni majburiy sudgacha bosqichga aylantirishga intilish kuzatilmoqda. Boshqa tomondan, mediatsiyaning tub mohiyati ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanadi. Bu ziddiyatni yechish mediatsiya institutini yanada rivojlantirishning muhim nazariy va amaliy vazifasi bo'lib qolmoqda.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot bir qator xulosalar chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, mediatsiya sof huquqiy protsedura doirasidan chiqib, qadriyatlarga yo'naltirilgan ijtimoiy

institut sifatida talqin qilinishi lozim. Uning mohiyati tomonlar o'rtasida o'zaro tan olish va konsensus makonini yaratishda namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, jamiyat transformatsiyasi sharoitida mediatsiyaning transformativ salohiyati alohida ahamiyat kasb etadi. O'tish davridagi jamiyatlarda mediatsiya nizolarni zo'ravonliksiz hal etish tajribasini shakllantirib, dialog va o'zaro hurmat madaniyatini mustahkamlaydi hamda ijtimoiy o'zgarishlarni konstruktiv o'zanga yo'naltiradi.

Uchinchidan, mediatsiyaning rivojlanish istiqbollari uch guruh omilning uyg'unligiga bog'liq. Bular institutsional omillar, ya'ni infratuzilma va kadrlar tayyorligi, qadriyat-madaniy omillar, ya'ni jamiyatning konsensual madaniyati, hamda xalqaro integratsiya omillari, jumladan Singapur konvensiyasi doirasidagi hamkorlikdir [7]. O'zbekistonda mediatsiyaning huquqiy asosi yaratilgan bo'lib [4], uni yanada rivojlantirish aynan shu yo'nalishlarni muvofiqlashtirishni talab etadi.

To'rtinchidan, mediatsiyaning aksiologik asosi uning nazariy tushunilishi uchun zaruriy shart hisoblanadi. Qadriyatlarni dinamik va subyekt ishtiroki orqali shakllanuvchi kategoriyalar sifatida idrok etuvchi yondashuv [5] mediatsiya axloqiyatini asoslash imkonini beradi. Ushbu natijalarning nazariy ahamiyati mediatsiyani ijtimoiy falsafa va aksiologiya kesishuvida ko'rib chiqishga qaratilgan yangi tadqiqot ufqini ochishdadir. Kelgusi izlanishlar milliy qadriyat konteksti asosidagi mediatsiya modelini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini empirik o'rganishga yo'naltirilishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Fisher R., Ury W., Patton B. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. 3rd ed. New York: Penguin Books, 2011. 204 p.
2. Moore C. W. The Mediation Process: Practical Strategies for Resolving Conflict. 4th ed. San Francisco: Jossey-Bass, 2014. 704 p.
3. Bush R. A. B., Folger J. P. The Promise of Mediation: The Transformative Approach to Conflict. Rev. ed. San Francisco: Jossey-Bass, 2005. 304 p.
4. O'zbekiston Respublikasining «Mediatsiya to'g'risida» 2018 yil 3 iyuldagi O'RQ-482-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/3805214>.
5. Абдуллаева И. Aksiologическое осмысление системы нравственных понятий в повестях А. П. Чехова // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 2025. Т. 3. № 11/S. С. 282–286. <https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics/article/view/9739>
6. Носырева Е. И. Альтернативное разрешение споров в США. М.: Городец, 2005. 320 с.
7. Mediatsiya natijasida erishilgan xalqaro kelishuvlar to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasi (Singapur konvensiyasi). Nyu-York, 2018 // UNCITRAL. URL: <https://uncitral.un.org>.